

O'zbekiston Respublikasida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. O'zbekiston Respublikasi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Uslubiy tushuntirishlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **538 919,7** mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – **518 822,7** mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – **15 081,5** mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – **5 015,5** mlrd so'mni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasida 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. O'zbekiston Respublikasi hududlari kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining 2024-yilga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (**106,9 %**), Farg'ona (**105,6 %**), Xorazm (**104,9 %**), Qoraqalpog'iston Respublikasi (**104,9 %**), Andijon (**104,7 %**) va Navoiy (**104,7 %**) viloyatlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Samarqand (**103,3 %**), Surxondaryo (**103,8 %**), Toshkent (**104,2 %**) va Qashqadaryo (**104,3 %**) viloyatlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.



**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot
(xizmat)lari hajmi hududlar kesimida**

	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Respublikasi	538 919,7	104,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	21 623,8	104,9
Andijon viloyati	53 525,8	104,7
Buxoro viloyati	48 312,9	104,3
Jizzax viloyati	36 543,6	104,4
Qashqadaryo viloyati	52 092,0	104,3
Navoiy viloyati	25 405,8	104,7
Namangan viloyati	41 994,2	104,4
Samarqand viloyati	60 758,2	103,3
Surxondaryo viloyati	42 272,0	103,8
Sirdaryo viloyati	19 157,2	106,9
Toshkent viloyati	52 857,7	104,2
Farg'ona viloyati	49 733,5	105,6
Xorazm viloyati	34 643,0	104,9

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **508 711,1** mlrd so'mni yoki 2024-yilga nisbatan **104,4 %** ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari **243 007,7** mlrd so'mni (**107,2 %**), chorvachilik mahsulotlari **265 703,4** mlrd so'mni (**101,6 %**) tashkil qildi.


Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Samarqand (**57 963,3** mlrd so'm), Andijon (**50 263,3** mlrd so'm), Qashqadaryo (**49 950,0** mlrd so'm) va Toshkent (**48 794,1** mlrd so'm) viloyatlarida qayd etildi.

Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Sirdaryo (**17 263,2** mlrd so'm), Qoraqalpog'iston Respublikasi (**19 932,0** mlrd so'm) va Navoiy (**23 574,3** mlrd so'm) viloyatlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (**107,0 %**), Farg'ona (**105,5 %**), Xorazm (**104,9 %**) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (**104,9 %**) qayd etildi.

Samarqand (**103,2 %**), Surxondaryo (**103,7 %**) hamda Qashqadaryo (**104,1 %**) viloyatlarida esa boshqa hududlarga nisbatan past o'sish sur'atlari kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining **62,3 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **29,4 %** i fermer xo'jaliklariga, **8,3 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish


	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Respublikasi	243 007,7	107,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8 970,1	110,1
Andijon viloyati	29 236,8	106,8
Buxoro viloyati	21 282,7	107,5
Jizzax viloyati	13 393,8	112,4
Qashqadaryo viloyati	18 294,6	109,4
Navoiy viloyati	7 318,0	107,6
Namangan viloyati	21 348,7	105,2
Samarqand viloyati	28 165,4	104,4
Surxondaryo viloyati	19 725,1	103,8
Sirdaryo viloyati	9 773,4	113,5
Toshkent viloyati	23 139,9	104,5
Farg'ona viloyati	28 198,4	109,0
Xorazm viloyati	14 160,8	109,7



Yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari,
2025-yil yanvar-dekabr

	Miqdori, ming tonna	O'sish (kamayish) sur'ati, % da
Donli ekinlar	10 112,1	113,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	7 657,3	107,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 284,1	176,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 170,7	106,4
Kartoshka	4 160,2	100,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1 216,3	113,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 805,5	94,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	138,4	134,0
Sabzavotlar	13 722,8	101,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	4 984,0	110,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	7 955,2	94,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	783,6	130,5
Poliz ekinlari	3 299,8	116,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1 744,7	112,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 346,6	118,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	208,5	136,9
Meva va rezavorlar	3 479,6	106,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1 706,3	113,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 607,5	99,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	165,8	106,5
Uzum	1 983,0	107,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	955,7	110,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	951,7	103,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	75,6	122,4

Yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2025-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, donli ekinlar yetishtirishning **75,7 %**i fermer xo'jaliklari hissasiga, **12,7 %**i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **11,6 %**i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

2025-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari (ming tonna)

	Donli ekinlar	Kartoshka	Sabzavotlar
O'zbekiston Respublikasi	10 112,1	4 160,2	13 722,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	393,3	113,0	419,1
Andijon viloyati	788,7	530,7	2 089,2
Buxoro viloyati	761,7	306,0	1 190,5
Jizzax viloyati	892,4	126,6	559,0
Qashqadaryo viloyati	954,6	230,1	663,9
Navoiy viloyati	308,3	131,0	413,0
Namangan viloyati	831,9	420,3	1 163,9
Samarqand viloyati	1 016,4	773,6	1 686,1
Surxondaryo viloyati	888,3	394,5	1 451,7
Sirdaryo viloyati	635,3	74,9	352,9
Toshkent viloyati	770,0	416,3	1 380,4
Farg'ona viloyati	1 147,0	480,0	1 616,0
Xorazm viloyati	724,2	163,2	737,1

Mahsulot turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, kartoshkaning **29,2 %** fermer xo'jaliklariga, **67,5 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **3,3 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, sabzavotlarning **36,3 %** fermer xo'jaliklariga, **58,0 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **5,7 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, poliz ekinlarining **52,9 %** fermer xo'jaliklariga, **40,8 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **6,3 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, meva va rezavorlarning **49,0 %** fermer xo'jaliklariga, **46,2 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **4,8 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, uzumning **48,2 %** fermer xo'jaliklariga, **48,0 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **3,8 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2025-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan ayrim turdagi
dehqonchilik mahsulotlari hajmi (ming tonna)**

	<i>Poliz ekinlari</i>	<i>Meva va rezavorlar</i>	<i>Uzum</i>
O'zbekiston Respublikasi	3 299,8	3 479,6	1 983,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	236,8	80,0	16,2
Andijon viloyati	269,4	751,9	92,1
Buxoro viloyati	240,4	313,0	241,4
Jizzax viloyati	430,6	111,2	38,4
Qashqadaryo viloyati	286,3	215,2	131,7
Navoiy viloyati	116,2	114,0	99,4
Namangan viloyati	183,2	416,2	167,3
Samarqand viloyati	185,4	408,4	696,9
Surxondaryo viloyati	379,7	194,8	94,4
Sirdaryo viloyati	417,8	51,6	18,7
Toshkent viloyati	98,1	160,4	102,3
Farg'ona viloyati	259,3	473,0	229,1
Xorazm viloyati	196,6	189,9	55,1

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari hajmi **265 703,4** mlrd so'mni yoki 2024-yilga nisbatan **101,6 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Qashqadaryo (**31 655,4** mlrd so'm), Samarqand (**29 797,9** mlrd so'm), Buxoro (**25 833,9** mlrd so'm), Toshkent (**25 654,2** mlrd so'm) va Jizzax (**21 429,6** mlrd so'm) viloyatlarida qayd etildi.

Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Sirdaryo viloyati (**7 489,8** mlrd so'm), Qoraqalpog'iston Respublikasi (**10 961,9** mlrd so'm) va Navoiy viloyatini (**16 256,3** mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Toshkent (**103,8 %**), Surxondaryo (**103,6 %**), Namangan (**103,1 %**), Navoiy (**103,2 %**) viloyatlarida qayd etildi.



Ko'rib chiqilayotgan davrda tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi 2024-yilga nisbatan **101,5 %** ni, sog'ib olingan sut **101,2 %**, olingan tuxum **107,0 %**, qirqib olingan jun **104,1 %**, olingan qorako'l teri **104,4 %** hamda ovlangan baliqlar **103,4 %** ni tashkil qildi.

Yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar

	Miqdori	O'sish (kamayish) sur'ati, % da
Go'sht (<i>tirik vaznda</i>), ming tonna	2 987,5	101,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	225,1	119,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 428,5	98,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	333,9	119,5
Sut, ming tonna	12 591,2	101,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	919,9	122,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	11 402,8	99,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	268,5	134,9
Tuxum, mln dona	9 483,0	107,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1 622,1	116,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	4 967,6	101,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 893,3	112,1
Jun, tonna	41 485	104,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	5 339	109,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	33 368	102,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 778	111,9
Qorako'l teri, ming dona	1 418,0	104,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	165,1	110,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 109,2	103,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	143,7	106,8
Baliq, ming tonna	206,2	103,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	116,7	108,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	11,4	104,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	78,1	96,7

2025-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan **7,5 %** fermer xo'jaliklari hissasiga, **81,3 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **11,2 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning **7,3 %** fermer xo'jaliklari, **90,6 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklari, **2,1 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, olingan tuxumning **17,1 %** fermer xo'jaliklariga, **52,4 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **30,5 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning **12,9 %** fermer xo'jaliklari, **80,4 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklari hamda **6,7 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining **11,7 %** fermer xo'jaliklariga, **78,2 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **10,1 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning **56,6 %** fermer xo'jaliklariga, **5,5 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **37,9 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

2025-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar

	Go'sht (tirik vaznda) (ming tonna)	Sut (ming tonna)	Tuxum, mln dona	Baliq (ming tonna)
O'zbekiston Respublikasi	2 987,5	12 591,2	9 483,0	206,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	130,3	470,7	425,0	14,0
Andijon viloyati	207,0	1 126,9	874,3	22,3
Buxoro viloyati	319,1	1 146,0	602,3	6,7
Jizzax viloyati	244,9	719,5	423,3	12,5
Qashqadaryo viloyati	347,0	1 395,0	583,8	4,6
Navoiy viloyati	203,0	584,5	482,3	10,2
Namangan viloyati	185,9	815,6	812,8	20,0
Samarqand viloyati	332,8	1 468,3	1 399,6	20,6
Surxondaryo viloyati	226,3	991,6	631,7	7,8
Sirdaryo viloyati	80,6	419,5	243,0	11,8
Toshkent viloyati	320,3	1 095,4	1 754,1	23,4
Farg'ona viloyati	196,1	1 207,5	728,2	16,4
Xorazm viloyati	194,2	1 150,7	522,6	35,9

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2026-yilning 1-yanvar holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar soni **14 522,8** ming boshga (2025-yilning 1-yanvar holatiga nisbatan **0,9 %** ga ko'p), sigirlar **5 154,4** ming boshga (**0,3 %** ga ko'p), qo'y va echkilar **24 970,2** ming boshga (**1,4 %** ga ko'p), otlar **299,6** ming boshga (**5,9 %** ga ko'p), parrandalar **118 652,6** ming boshga (**10,6 %** ga ko'p) yetdi.

2026-yilning 1-yanvar holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Miqdori, ming bosh	O'sish (kamayish) sur'ati, % da
Yirik shoxli qoramollar	14 522,8	100,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1160,9	106,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	13 019,4	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	342,5	105,2
shundan sigirlar	5 154,4	100,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	487,6	109,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	4 534,7	99,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	132,1	100,7
Qo'y va echkilar	24 970,2	101,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	4 141,8	104,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	18 794,7	100,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 033,7	107,3
Otlar	299,6	105,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	76,8	104,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	196,8	105,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	26,0	113,9
Parrandalar	118 652,6	110,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	20 514,7	107,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	48 516,6	100,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	49 621,3	124,9

2026-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning **8,0 %**i fermer xo'jaliklari hissasiga, **89,6 %**i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **2,4 %**i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

Mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan **9,4 %**i fermer xo'jaliklariga, **88,0 %**i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **2,6 %**i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan **16,6 %**i fermer xo'jaliklariga, **75,3 %**i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **8,1 %**i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, otlarning umumiy sonidan **25,6 %**i fermer xo'jaliklariga, **65,7 %**i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **8,7 %**i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan **17,3 %**i fermer xo'jaliklariga, **40,9 %**i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **41,8 %**i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keladi.

**2026-yilning 1-yanvar holatiga chorva mollari va parrandalar
bosh soni, ming bosh**

	Yirik shoxli qoramollar	shundan sigirlar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
O'zbekiston Respublikasi	14 522,8	5 154,4	24 970,2	118 652,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 265,2	361,9	1 253,8	5 744,6
Andijon viloyati	1 182,1	410,1	1 600,6	15 468,2
Buxoro viloyati	1 404,0	460,5	2 591,5	8 830,5
Jizzax viloyati	995,6	276,8	2 435,1	4 219,3
Qashqadaryo viloyati	1 795,6	598,7	5 231,9	7 404,6
Navoiy viloyati	561,6	227,2	2 559,9	3 837,3
Namangan viloyati	800,6	266,3	868,2	7 913,1
Samarqand viloyati	1 777,4	758,4	2 753,4	16 076,9
Surxondaryo viloyati	1 101,0	402,3	2 675,2	5 804,1
Sirdaryo viloyati	521,4	187,5	421,0	6 019,5
Toshkent viloyati	1 012,6	424,2	1 112,0	20 000,2
Farg'ona viloyati	1 109,6	405,0	959,1	9 332,9
Xorazm viloyati	996,0	375,5	508,6	8 001,3

VI. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhidagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shundan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.).

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent sh.,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63;

Aloqa uchun: info@stat.uz
Tel.: +998 71 203-80-00 (1230)

